

O'QUV MASHG'ULOTINI REJALASHTIRISH VA LOYIHALASHTIRISH

Abdullayeva Saodat Mengbayevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv mashg'ulotini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan rejulashtirish va loyihalash jarayonlari yoritilgan. Pedagogik faoliyatda darsni puxta rejulashtirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada o'quv maqsadlarini aniqlash, metodlarni tanlash, ta'lif texnologiyalaridan foydalanish, baholash mezonlarini belgilash hamda o'quv muhitini tashkil etish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarga dars jarayonini tizimli, samarali va natijadorlikka yo'naltirilgan tarzda olib borishda amaliy yordam beradi.

Kalit so'zlar: Konstruktiv yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar, ta'lif texnologiyasi.

Kirish. Zamonaviy ta'lif jarayonida o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga rahbarlik qiluvchi muhim shaxsdir. Shu boisdan ham har bir darsni samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori darajadagi rejulashtirish va loyihalash ko'nikmalarini talab etadi. O'quv mashg'ulotini rejulashtirish bu – o'qituvchining o'quv maqsadlariga muvofiq holda darsni qanday tashkil etish, qanday vosita va usullardan foydalanish, qanday natijaga erishish rejulashtirilganligini ko'rsatuvchi jarayondir. Ushbu maqolada aynan shu jihatlar atroflicha tahlil qilinadi.

XXI asrga kelib fan-texnologiya rivojlanishi natijasida axborotlar oqimi ortib bormoqda. Bu esa mehnat va xizmatlar bozorida faoliyat yuritayotgan har bir xodimdan bilimlarini qisqa vaqt ichida yangilash, kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, o'z vaqtida shaxsiy kamolot va kasbiy faoliyati uchun zarur

bo'lgan jihatlarni o'zlashtirib borishni taqozo etadi. Aks holda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, u o'zining mehnat va xizmatlar bozoridagi o'rnini yo'qotib qo'yishi mumkin.

Hozirgi kunda har bir o'quv fani bo'yicha texnologiyalar ishlab chiqish ta'lim jarayonini tashkil qilish maqsadiga erishishda alohida o'rin tutadi. Barcha o'quv fanlari qatori matematika fanlari bo'yicha ta'lim texnologiyalarini quyidagilarga asoslangan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidalarini aniqlash.
2. Ta'lim maqsadini belgilash, ya'ni o'quv fanining tuzilishi va mazmunini aniqlash.
3. O'quv axborotining hajmi va murakkabligini aniqlash.

Zamonaviy ta'limda har bir o'quv mashg'ulotini oldindan rejalashtirish va loyihalashtirish muhim hisoblanib, uni amalga oshirishda quyidagi qoidalarga (zamonaviy ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda o'qituvchi faoliyatining ketma-ketligi) amal qilish talab etiladi:

ta'lim jarayonini rejalashtirish;

ta'lim jarayonini loyihalashtirish;

talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish bosqichlarini aniqlash;

ta'lim jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqish.

Zamonaviy ta'limda har bir o'quv mashg'ulotini rejalashtirish va loyihalashtirishda ta'lim texnologiyasi modeli muhim o'rin tutadi. Rejalashtirish, ya'ni istiqboldagi istalayotgan modelni yaratish – loyihalashtirish bilan qiyoslanganda bu juz'iyroq tushuncha hisoblanadi.

Kutilayotgan natijalarga erishish maqsadida o'qituvchi tomonidan jarayonga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ta'lim shakllari, vositalari, metodlari, texnologiyalarini oldindan to'g'ri tanlash yuzasidan to'la tasavvurga ega bo'lish jarayoni – o'quv mashg'ulotini *rejalashtirish* deb yuritilib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: butun ta'lim davri; o'quv yili; semestrlar (choraklar bo'yicha); oylik; haftalik; kunlik va bir soatlik nazariy yoki amaliy o'quv mashg'uloti

bo'yicha.

Ta'lism jarayonini oldindan rejalashtirish esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'lism maqsadalarini aniqlash, ya'ni "Nima uchun o'qitiladi?" degan savol haqida oldindan to'liq tasavvurga ega bo'lishi; o'rganiladigan nazariy yoki amaliy material mazmuni, ya'ni "Nima o'rganiladi?" degan savolga oldindan javob bera olishi; rejalashtirilgan ta'lism mazmunini yetarli darajada egallash orqali ta'lism maqsadlariga erishish uchun ta'lism metodlarini tanlash, ya'ni "Qanday o'qitish kerak?"ligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; ta'lism maqsadlariga erishishda kerak bo'ladigan ta'lism vositalari, ya'ni "Nima yordamida o'qitish zarur" ekanligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; ta'lism maqsadlariga erishishni ta'minlashni tashkil etish, ya'ni "Qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq?"ligi haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi; ta'lism jarayonida erishilgan natijalar, ya'ni oldindan belgilangan maqsadlarga erishildimi yoki yo'qmi – uni aniqlash bo'yicha to'la tassavvurlarga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'quv mashg'ulotini rejalashtirish quyidagi asosiy savollarga javob berishga yordam beradi:

- Darsning maqsadi nima?
- O'quvchilar nimani o'rganishlari kerak?
- Qanday metod va vositalar ishlataladi?
- Dars qanday bosqichlardan iborat bo'ladi?
- Baholash qanday amalga oshiriladi?

Darsni rejalashtirish o'qituvchiga o'z faoliyatini aniq yo'naltirish, vaqtini tejamli taqsimlash va darsni yuqori samaradorlik bilan o'tkazishga imkon yaratadi.

Dars loyihasining tuzilishi. Har qanday o'quv mashg'uloti uchun dars loyihasi (konspekt) quyidagi asosiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

- 1.Mavzu nomi
- 2.Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish
- 3.Darsning turi (yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi, umumlashtiruvchi, aralash va h.k.)
- 4.Darsning maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi)

- 5.Kutilayotgan natijalar
- 6.Kerakli vositalar va jihozlar
- 7.Darsning metod va usullari
- 8.Darsning borishi (bosqichlari: kirish, asosiy qism, yakun)
- 9.Baholash mezonlari
- 10.Uyga vazifa

O'quv mashg'ulotini loyihalashda zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy ta'lif texnologiyalari darsni loyihalashda quyidagi tamoyillarni hisobga olishni tavsiya etadi:

- *Konstruktiv yondashuv:* o'quvchi darsda faol ishtirok etadi, bilimlarni mustaqil izlaydi.
- *Kompetensiyaviy yondashuv:* bilim emas, balki amaliyotda qo'llashga qodir kompetensiyalar shakllantiriladi.
- *Innovatsion metodlar:* klaster, aqliy hujum, keys-stadi, loyihaviy metod, AKTdan foydalanish.
- *Baholashning shakllari:* reyting, rubrik, o'zaro baholash, refleksiya.

O'qituvchining rejalahtirishdagi roli. O'qituvchi:

- o'quvchilarning bilim darajasini hisobga oladi;
- o'quvchilarning faoliyatini oldindan taxmin qiladi;
- mos metodlarni tanlaydi;
- o'quv muhiti va motivatsiyani yaratadi;
- darsni baholash va tahlil qilishni amalga oshiradi.

Darsga tayyorgarlik ko'rmagan o'qituvchi darsni samarali o'tkaza olmaydi. Shuning uchun har bir dars oldidan chuqur rejalahtirish – ta'lif sifatining kafolatidir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lif tizimiga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu o'z navbatida, ta'lif jarayonini oldindan loyihalashtirishni amalga oshira oladigan, texnologik bilimlar tizimiga ega bo'lgan zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan talabni oshiradi.

Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiyligi, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining birlashgan nuqtalarida (o'qitish va o'qish maqsadlari) ta'lim nazariyasi asosida ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirish yo'llari orqali ko'zlangan maqsadga erishishdir.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida ta'lim oluvchi egallashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar bo'lib, erishilgan natijalarni ob'ektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi. Bunda: ta'lim oluvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi, o'quv mashg'ulotlari loyihalari tuzib chiqiladi, teskari aloqani yo'lga qo'yadi, ta'lim vositalari, ya'ni tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholashni aniqlaydi, loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko'rinishda, ya'ni o'quv jarayoni innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli, ya'ni protsessual bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi.

O'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi.

Texnologik xaritaga ilova o'z ichiga quyidagilarni oladi: ta'lim oluvchilar tomonidan bilim olishni faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan test va savollar ro'yxati, guruhlarda ishlash uchun yo'riqnomasi, o'quv faoliyati natijasida ta'lim oluvchilar tayanishi mumkin bo'lgan tushuncha va qoidalar. Masalan, "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarası" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Tajriba vositasida o'qitish sikli" (D.Kolb g'oyasi), "Qora quti", "Venn diagrammasi" usullari, "Zig-zag", "Insert" strategiyalari, "Rolli hamda ishbop o'yinlar" bo'lishi mumkin.

O'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida foydalilaniladigan kompyuter,

multimedia, yozuv doskasi, slayd, jadval hamda boshqa vizual materiallar, munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar, ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. Ta'lim texnologiyasining innovatsion modelini shakllantirishda fanlarni o'qitishning an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosiy o'rinni egallaydi. Ilm-texnika taraqqiyoti jadallahshgan hozirgi davrda samaradorlik, asosan, ta'lim oluvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. O'quv mashg'ulotini rejalashtirish va loyihalash pedagogik mahoratning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim jarayonining sifat va natijadorligini belgilovchi muhim omildir. Zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi darslarni tashkil etish uchun o'qituvchi har bir bosqichni puxta o'ylab, yangicha yondashuvlarni qo'llashi lozim. Faqat shundagina o'quvchilarda mustahkam bilim, amaliy ko'nikma va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva S.M. "Pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish". "Ustozlar uchun". 68-sон 1 –to'plam Mart 2025
2. Abdullayeva S.M. "O'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish". Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2022. 2
3. Abdullayeva S.M. "Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyasidan foydalanish". Modern education and development. Часть–4_ Апрель –2025.
4. Abdullayeva S.M. "5-6-sinf o'quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining ayrim jihatlari". Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2022.3
5. Abdullayeva S.M. "Ta'lim texnologiyasini yangilash - zamon talabi". Pedagogika, 2023, 4-son.
6. Abdullayeva S.M. O'quv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Лучшие интеллектуальные исследования международный

научный электронный журнал, ЧАСТЬ-9 ТОМ-2, Ноябрь - 2023 год

7.Izetaeva G.K. Matematik fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishning nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013

8.Siddiqov Z.X. Matematik modellashtirishning nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. –T.: Navro'z, 2017

9.Tojiev M., Ziyomuhamedov B., Usmonov B.SH., Xurramov A.J. O'qituvchi faoliyatini loyihalash // Monografiya. – T.: TURON-IQBOL, 2017

10.M.Tojiev, M.Barakaev, G.Izetaeva, D.Turdiboev.Uzluksiz ta'lim tizimida

o'quv fanlarining modulli o'qitish metodikasi va amaliyoti // Monografiya. – T.: Turon iqbol. 2017.